

IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNING AHAMIYATI

Sharopov Temirmalik Rustam o‘g‘li
Qarshi xalqaro universiteti aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Email: Temur.Sharopov@mail.ru Tel: +99897 036 65 66

Annotatsiya: Maqolada investitsiya loyihalarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri, iqtisodiy o‘sishning xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liqligi, O‘zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o‘rni, xorijiy investitsiyalarning umumiqtisodiy samaraga erishishdagi ahamiyati, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar va uning tarkibida xorijiy investitsiyalarning o‘rni kabi masalalar yorilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, iqtisodiyot, modernizatsiya, loyiha, sanoat, oziq-ovqat, eksport, islohat.

Annotation: In the article, the impact of investment projects on economic growth, the relationship between economic growth and foreign investments, the role of foreign investments in the development of the economy in Uzbekistan, the importance of foreign investments in achieving overall economic efficiency, investments in fixed capital and the composition of foreign investments in it. Issues such as 'rni' were discussed.

Key words: Investment, economy, modernization, project, industry, food, export, reform.

Mamlakatimizda investitsiya jarayonlarini iqtisodiy tartibga solish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada jadallashtirish maqsadida investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda boshqa qator funktsional vazifalarni bajaruvchi maxsus tizimli jamg‘armani tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugun yurtimiz bozoriga yangidan-yangi investitsion loyihalar juda zarur. Rivojlangan mamlakatlarga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak bozor iqtisodiyotida investitsiyaning ulushi sezilarli darajadaligiga guvoh bo‘lamiz.

Hozirgi kunda rivojlangan va takomillashtirilayotgan investitsion



faoliyatning yo‘lga qo‘yilishida davlatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “2016-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o‘ta muhim o‘rin tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarning eng muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi”[1].

Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, iqtisodiyotni yanada barqarorlashtirish uchun zarurdir. Real investitsiyalarni (bino va inshootlar qurish va modernizatsiya qilish, zamonaviy mashina va asbob-uskunalar sotib olish) jalb qilish iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Ishlab chlqarishga zamonaviy texnologjyalarni olib kelishga yo‘naltirilgan investitsiyalar qattiq raqobat sharoitlarida omon qolishga ko‘maklashadi[2:28].

Ayni paytda, jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni iqtisodiyotning istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlariga joylashtirish mexanizmlarini maqbullashtirish, investitsiya loyihalarini umummilliy va mintaqaviy darajada venchurli moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish vositalarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Investitsiya loyihalarini samarali boshqarivi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin[3], - deya ta’kidlab o’tdilar. Darhaqiqat, Prezident to‘g‘ridan-to‘g‘ri



xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni so‘zsiz amalga oshirish, chet ellik investorlarga har tomonlama yordam berish hukumatning eng muhim vazifasi bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Investitsiyalarning asosiy qismini o‘zlashtirishni yilning oxirgi oylariga surish amaliyotiga chek qo‘yib, barcha tarmoqlar va hududlarda buni birinchi yarim yillikda kamida 35 foizga, to‘qqiz oylikda 70 foizga yetkazish zarurligi qayd etildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham katta hajmdagi investitsiyalarni talab etuvchi davlat Dasturlari amalga oshirilayotganligi barchamizga ayon va bunga qishloq joylarda aholini uy-joylar bilan ta’minlash va ular qurilishini amalga oshirish, sanoatni rivojlantirish, aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, transport va aloqa tizimini rivojlantirish va boshqa (yonilg‘i va energetika, mashinasozlik, yo‘llarni qurish va ta’mirlash, lokalizatsiya kabilar) davlat Dasturlarini misol qilib keltirish mumkin.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 18-avgustdagi “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ham mamlakatda investitsiya salohiyatini rivojlantirishga qaratilgani bilan o‘ta ahamiyatlidir.

Unga ko‘ra, eksport salohiyatini yanada kengaytirish, investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalari hamda oliy darajadagi tashriflar davomida imzolangan hujjatlarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” ga kiritilgan tadbirlarning ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash maqsadida Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Hukumat



komissiyasining vazifalari va tarkibi yangilani bu borada qilinayotgan ishlarning ko‘lamini yanada orttiradi[4].

Investitsion loyihalarni iqtisodiyotga jalb etish strategiyasi bo‘lajak chet ellik investorlarning manfaatlarini hamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan holda ularni qondirish imkoniyatlarini o‘rganishga asoslanadi. Investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda huquqiy asoslarga taalluqli hozirgi vazifa - bu, hukumatning xorijiy investitsiyalar bo‘yicha uzoq muddatli barqaror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potensial xorijiy investorlarga yetkazishdan iboratdir.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo‘llarining aniq va to‘g‘ri ko‘rsatib berilganligi bosh maqsad yo‘lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo‘lishiga imkon yaratdi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “O‘zbekistonni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va mamlakatimizning 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturidagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ma’ruzasi” 2016 yil 17 yanvar, Xalq so‘zi.
2. B.S. Mamatov, D.Yu. Xujamkulov, O.Sh. Nurbekov. InvestitsiyalarDi tasbkil etisb va moliyalashtirish. Darslik. -Toshkent.: IqtisodMoliya, 2014. - 608 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.



4. Xalq so‘zi online. Aktam Haitov Investitsiya bo‘lmasa iqtisodiyot rivojlanmaydi. 2020-yil 20-avgust.